

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№SI-3 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қозоқов Собиржон Зокиржонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Sodiqova Shohida RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KEKSALAR UCHUN IMKONIYATLARI VA XAVFLARI.....	9
2. Karimov Bobir FASILITATIV LIDERLIK – BOSHQARUVDA DEMOKRATIK JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	18
3. Алексеева Виктория ОСОБЕННОСТИ ВОСПРИЯТИЯ МОЛОДЕЖЬЮ СОЦИАЛЬНЫХ ЛИФТОВ В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	26
4. Якубов Ильдар СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....	38
5. Ахмедов Нодир ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ БОРЬБЫ.....	45
6. Abduraxmonova Manzuraxon, Sultonova Nazokatxon KVADROBERLAR SUBMADANIYATI – DEVIANT XULQ-ATVOR SIFATIDA.....	53
7. Alikariyeva A’loxon TA’LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI.....	59
8. Berdimuratova Alima, Kamalova Khatira, Baymurzaev Azamat GLOBALLASIW DÁWIRINDE QARAQALPAQSTANLÍ JASLARDIŃ QÁDIRIYATLARĜA BAĜDARLANGANLÍĜI MÁSELELERI.....	67
9. Mirzaxmedov Xurshid SOTSIAL TRANSFORMATSIYA: YOSHLAR.....	81
10. Zaretdinova Nesibeli, Hakimniyazova Mavluda MEHNAT MIGRATSIYASINING DEMOGRAFIYAGA TA’SIRI.....	89
11. Mo‘minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK TURLARI: VERTIKAL VA GORIZONTAL IJTIMOiy MOBILLIK HAQIDA TUSHUNCHA.....	96
12. Узакова Зарина ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	103
13. Alimuxamedova Nodira «MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	110
14. Radjabova Aziza GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA’SIRI.....	117

15. Dulanbayeva Oygul ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA DIN VA IQTISODIY INSTITUTLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI.....	123
16. Bekmurodov Xusan “MAHALLA YETTILIGI” – JAMIYATDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MEXANIZMI SIFATIDA (SOTSIOLOGIK TAHLIL).....	129
17. Samadov Shohzod FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYASIGA DOIR QARASHLAR (SOTSIOLOGIK TAHLIL ASOSIDA).....	135
18. Мирзаева Шахноза НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	142
19. Mirjavxarova Farida TRANSFORMATSION JAMIYATDA HARBIYLIK KASBI: ORIENTATSIYA VA DEFORMATSIYA (KASBIY BUZILISH) SABABLARI, OMILLARI VA UNING NAMOYON BO'LISHI.....	148
20. Xaytboev Boburjon INSON, FAN VA TEXNIKA TUSHUNCHALARI – FALSAFIY TADQIQOD OBYEKTI SIFATIDA.....	155
21. Xo'jamqulov Adham YANGI O'ZBEKISTONNING YOSHLARGA DOIR SIYOSATI: YOSHLAR IJTIMOIIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	162
22. Qobilov Uchqun DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMILLIGINI SHAKLLANTIRISH.....	169
23. A'zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIIY DAVLAT MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	176
24. Tajieva Dilnoz YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA MAVQEI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	183
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	189
26. Каюмова Райхона МАХАЛЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ И СОВРЕМЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	198

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Mirzaxmedov Xurshid

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universitet dotsenti

ORCID ID: 0000-0001-6026-2262

SOTSIAL TRANSFORMATSIYA: YOSHLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14564774>

ANNOTATSIYA

Globalashayotgan jamiyat taraqqiyotining transformatsiya jarayoni yoshlarning fe'l-atvori, maqsad-mo'ljal va ehtiyojlarida o'zgarishlar yasashi maqolada taxlil etilgan. Muallif istemolchilik jamiyatining yoshlarida adabiyot va sanat, madaniyat va marifatga bo'lgan munosabatidagi transformatsiya qadriyatlarining mazmun-mohiyatiga ta'sirining taxlili, ularning ahloqini ananaviylikdan zamonaviylikka o'tishini sotsiologik tadqiqini o'tkazgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, globalashuv, qadriyatlar, transformatsiya, ta'lim-tarbiya, ma'naviy tahdid.

Мирзахмедов Хуршид

Доктора философии (PhD) по социологическим наукам

Доцент Наманганский государственный университета

ORCID ID: 0000-0001-6026-2262

СОЦИАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ: МОЛОДЕЖЬ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается перемены социальных настроениях, поведениях и целевых ориентирах в процессах трансформации развитии глобализирующей общества. Автором анализируются воздействия просвещения и культуры, литературы и искусства трансформационных процессов на социальных ценностей потребительского общества, что проведен социологическое исследование нравственного перехода от традиционной к современной.

Ключевые слова: Молодежь, глобализация, ценности, трансформация, образования и воспитание, духовная угроза

Mirzakhmedov Khurshid

Doctor of philosophy (PhD) on sociological sciences

Associate Professor of Namangan State University

ORCID ID: 0000-0001-6026-2262

SOCIAL TRANSFORMATION: YOUTH

ABSTRACT

The article deals with changes in social attitudes, behaviors and targets in the processes of transformation and development of a globalizing society. The author analyzes the impact of education and culture, literature and art of transformational processes on the social values of consumer society, and conducts a sociological study of the moral transition from traditional to modern.

Keywords: Youth, globalization, values, transformation, education and upbringing, spiritual threat

KIRISH

Zamonaviy dunyoning larzaga solayotgan xalqaro, mintaqaviy mojarolar va jahon iqtisodiy-moliyaviy muammolarni to'liqini mamlakatimiz hayotiga barqarorlik va xalqning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan, yoshlar orasida turli xil yangi tahdid va xavflar ijtimoiylashayotgani bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ekanligi ko'rsatmoqda. Shu o'rida, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy himoya immun muhofazasini shakllantirish zarur.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yoshlarning tarbiyasi xaqida, "...raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan bog'liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi darkor". – ta'kidlagan edi [1, B. 192].

Ma'naviy hayotda aksiologik ong inson tajribasi, muayyan voqea, jarayon va hodisalarni bilish va baholash asosida shakllanadi. Shu boisdan muayyan madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarining ijtimoiylashuv jarayoni yoshlar tomonidan bevosita o'zlashtiriladi [2. C.86].

Globalashayotgan jamiyatning taraqqiyoti aholi ehtiyojini ortishi, ayniqsa yoshlar extiyoji biznesning alohida shakliga aylandi. Istemolchilik jamiyatida yoshlarning moddiy extiyoji o'sib, mol-mulk, boyluk, pul kabi ashyoviy ne'matlarga "ochlik" holati bugungi ta'lim-tarbiyaga bo'lgan extiyojmand jamiyatni transformatsiyalashuvida ham o'z ifodasini topmoqda. Respublika aholisining salmog'ida yoshlar ulushining barqaror yuqoriligi ta'lim-tarbiyadagi davlat siyosati jozibali «Ommaviy madaniyat»ning turli xil tahdidlari yoshlarning fe'l-atvori va tabiatida yangi qadriyatlarining ommalashuviga olib kelmoqda. Shaxs xayotida qadriyatlar ijtimoiy yashash me'yori bo'lib, shaxsning ma'naviy barkamollik yo'nalishini belgilab beradi. Qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra moddiy va ma'naviy, milliy-diniyligi bilan bir tomondan, muayyan aksiologik sotsium tizimini ijtimoiy sharoitini yaratsa, ikkinchi tomondan, shaxsning qadriyatlar ta'sirida ijtimoiylashuvi va professionallashuvi yuz beradi [3, C. 166].

Yoshlarning axborotga munosabatining beqiyos o'sishi ma'naviy-madaniy qadriyatlarga sadoqat, milliy o'zlikni saqlab qolish ehtiyojini ikki barobar orttirmoqda. Yoshlarning extiyojlarida internet tarmoqlariga bog'lanish onlaynlashuv muammosini keltirib chiqardi. Ijtimoiy tajriba onlaynlashuv yoshlar fel-atvorida milliy qadriyatlarga nisbatan begonalashuv, xudbinlashuv jarayonining o'sish ko'rsatkichlarini tasdiqlamoqda. Begonalashuv - shaxsning ijtimoiy – iqtisodiy hayotini qulaylashtirishga intilish natijasida o'zini o'zgalardan uzoqlashuvi, shaxsning o'zini doirasida qolishi, atrofida bo'layotgan voqea va hodisalarga loqaydlik, ayniqsa molparastlikka berilish, o'zgalarga munosabatida ma'naviy qiymatning ruhiy begonalashuvi holati shaxsni ahloqida xudbinlikka tortadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharov A.V. Transformatsiya sennostey v menyayuцemсыa mire; Romanova K.S. Transformatsiya sennostey kak indikator izmeneniya obщestva i lichnosti; Mirzaxmedov X.A. Emotsionallashayotgan yoshlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada emperik tadqiqot, mantiqiylik, tizimlilik, so'rovnoma, o'zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALARI

Transformatsiya (lot. transformatio – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) (genetikada) – hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishidir [9. B. 634].

«**Qadriyatlar transformatsiyasi**» - halq mentalitetida yashab kelayotgan necha ming yillik qadriyatlar yig'indisi o'rniga zamonaviy, badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan "Ommaviy madaniyat" ash'yo-ne'matlari bo'lib, bugungi yoshlar jamiyati ma'naviy qadriyatlarining shakllanishiga asos bo'moqda. Shu ma'noda qadriyatlarining transformatsiyasi jamiyat taraqqiyotining bir bosqichdan rivojlangan yangi bosqichiga o'tishida ananaviy qadriyatlar, avlodlarning turmush tarzi odat va analarining yangi jamiyatga vorisilik holatida yoshlar tomonidan o'zlashtirish jarayonidagi islohini nazarda tutiladi.

Yoshlarda axborotga bo'lgan munosabatning shiddatkorligi ma'naviy-madaniy qadriyatlarga sadoqat, qadriyatlarimizni saqlab qolish ehtiyojini bugungi kunda ikki barobar ortirmoqda. O'zbek halqining boy madaniy merosi unutilib, yengil-yelpi, mazmunsiz, soxtalashgan sanat mahsulotlari yoshlarning orasida "urf" bo'lishi ilmiy jamoatchilikni xavotirga solmoqda. Istemolchilar jamiyatida yoshlar tomonidan har qanday axborotni video-rolik shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta'sirini ko'rish mumkin.

Sotsiologik tahlillarimizda, yoshlar hayotida transformatsiyalashayotgan qadriyatlarni ustuvorligining ierarxiya shkalasi aniqlandi:

- oila
- ish
- do'stlar, tanishlar
- bo'sh vaqt
- din
- siyosat

Zamonaviy axborot texnologiyalarining beqiyos o'sishi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ma'rifatining ortda qolishi tufayli ijtimoiy munosabatlarda qadriyatlarining qadsizlanishi, odat va analarining o'zgarishi bilan tarbiyaning samarasiga ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri kuzatilmoqda. Moziyga qaytib ish ko'rishning zaruriyati tarix saboqlari, milliy qadriyat va an'analarda jamiyat taraqqiyotining muhim elementlarini ko'rishga imkon beradi [4, B.284].


Yoshlarning xayotida oilaviy udumlardan tiyilish bilan birga, o'tkinchi tarbiyaviy jarayonlarga intilish, milliy xikmatlardan begonalashuv, umumiylik qadriyatiga ko'p vaqti ajratish natijasida oilaviy qadriyatlarining nochorligi, ota-onalardan begonalashuv jarayoni tarbiya munosabatlarida ommaviylashmoqda. Shu o'rinda, yoshlar fe'l-atvorida yangi «**Ommaviy tarbiya**» - shaxsning shakllanishida milliy-estetik va milliy-etik qiymatsiz, hammaga to'g'ri keladigan yengil-yelpi xususiyatlarga moyil turli xil jarayon va predmetlarni tarbiyasi shakllanib, zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ruhiy muhitiga globallashuv ta'sirining ifodasi deb hisoblaymiz.

«Ommaviy madaniyat» niqobi ostida yoshlarning maqsadi, xohish-istaklari va turmush tarzining transformatsiyalashuvi intolerantlik muammosini ham keltirib chiqarmoqda. Ya'ni, yoshlarning hayot ne'matlarining tez sur'atda olish, tatib ko'rish, his qilish, tushunish va iste'mol qilish kayfiyati shakllanishi orqali intolerantlik fe'l-atvori yuzaga keldi. Natijada, sabrsizlik, betoqatlik, qanoatsizlik, chidamaslik, murosasizlik, muvozanatsizlik, jizzakilik, qahr, g'azab, nafrat, isyonkorlik, qo'pollik, befarqlik, loqaydlik, tushunmaslik, begonalashuv kabi yoshlarda illatlarning rivojlanishi tolerantlik madaniyatiga bo'lgan ehtiyoj yanada oshmoqda.

Yoshlar hayotida «Ommaviy madaniyat»ga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada: ««Ommaviy madaniyat» vakillari bilan munosabatingiz?» degan savol berildi. So'rovnomada qatnashganlarning 1300 nafar respondent bo'lib, undan 487 (38,1 %) «Ko'rmayman yoki muloqot qilmayman», 315 nafar respondent (24,6 %) «Menga farqi yo'q», 194 nafar respondent (15,2 %) «Hozir xamma shundayku», 282 nafar respondent (22,1 %) esa ««Ommaviy madaniyat» bu zamonaviylik» javobini belgilab, bugungi transformatsiyalashayotgan jamiyat yoshlari hayotning naqadar o'zgarayotganligi, loqaydlik, befarqlik va begonalashuv bilan ijtimoiy sabr madaniyatiga zaruratni tasdiqladi.

Xorijiy manbalarda zamonaviy tahdidlarning orasida **diniy jihadning** ikkinchi yo'nalishi "rahbarsiz, lidersiz yoshlarning ijtimoiy voqelikka qarshiligini tashkili" bloggerlik harakatida rejalashtirilgan [5, S. 12]. OAV orasida Internet va mobil aloqalarning yangi imkoniyatlari yoshlar

ma'naviyatida qadriyat transformatsiyasiga salbiy ta'sir etishi bilan birga jismoniy salbiy ta'siri ham aniqlandi. Axborot resurslaridagi «**ommaviy qadriyatlar**» - ijtimoiy tabaka va qatlamning barchasiga mos past saviyali badiiy-estetik madaniyat namunalari va narsa va buyumlarga suniy andoza tusini berish jarayoni bo'lib, ko'p hollarda yoshlarimiz o'zligining milliy qadriyatlardan mosuvo etib, yoshlarda vulgar modalashgan kiyinish, insonni kuchli emotsiyaga olib boruvchi jarayonlarga maylning ortishi hayot mazmuniga aylanishi tufayli bo'sh vaqtning mazmunsizligi, nafis didni dag'allashuvi ostida «**kitch-did**» - (nem. Kitsch - sifatsiz, arzon, yengil-yelpi, saviyasi past) nafosatsizlikka boshlovchi, arzon va jo'n yaratilgan narsa va buyumlarga suniy joziba tusini berish jarayoni yoshlarning ahloqida hosil bo'lmoqda. Bu hol behayolik va zo'ravonlik, notabiiylik, andozasizlik, madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik, millat va uning ma'naviy qadriyatlariga bepisandlik bilan ijtimoiy manfaatlarga daxl qiluvchi holatni tug'diradi. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy ornament – belgilarini transformatsiyasi ma'naviyat, qadriyatlariga nisbatan begonalashtirmoqda.



1. Rasm. «Ommaviy madaniyat» vakillari bilan munosabatingiz?[10]

Biz, yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha transformatsiya jarayonining shartli ravishda quyidagicha ijtimoiy tahlillashtirish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Jamiyat hayotini laxzada o'zgarishi inson ehtiyojlariga ta'sir etib, yoshlarning musiqaga bo'lgan ehtiyojida estetik transformatsiyaga olib kelishini kuzatish mumkin. Zamondan-zamonga o'tib odamlarni ruhiga ma'nan ozuqa berib kelgan milliy-klassik musiqa janrlarga yoshlarning murojaatlari jiddiy qisqarishi g'arbning quloqni qomatga keltiruvchi rok yoki asl san'at asarini qayta buzilgan "Cover version" [6] janrlariga murojaatlarining ortishini 1-jadval dallillaymiz. Misol:

1-jadval

Yoshlarning "Karvon" taronasiga murojaatining qiyosiy holati

№	Ijrochi	Musiqasi nomi	Internetga joylangan vaqti	Murojaat soni	Ijtimoiy portal nomi
1	Sherali Jo'raev [14]	Karvon	2018	30.165	Youtube
2	Sandjey [15]	Karvon (Cover version)	2018	4.386.369	

2. Dunyoning texnika taraqqiyoti inson hayotini farovonlashuviga imkon berdi. Ammo kino san'ati transformatsiyasi yoshlar fe'l-atvorida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sabrlik, do'stlik, kechirimlilik, bag'rikenglik kabi sifatlarni yaratishga xizmat qiluvchi janrlardan jizzakilik, qo'pollik, sabrsizlik, dangasalik, xiyonatkorlik uyatsizlik kabi sifatlarni rivojlantiruvchi kino janrlariga murojaati kuzatilmogda.

3. Bugungi zamonaviy yoshlarni teatr, opera, balet, muzey va galereyadan kompyuter-video o‘yin va tungi klublar orqali badiiy-estetik dunyoqarash transformatsiyasini ham kuzatish mumkin.

4. O‘zbek halqi tarixan milliy bayramlar: dehqonlarning xirmon sayllari, badiiy kechalar, milliy-diniy tadbirlarda inson fe‘l-atvorining ijobiy sifatlarini shakllantiruvchi sanat bayramlari, milliy askiya kechalaridan axloqsiz, davlat, jamiyat va inson sha‘niga qaratilgan turli xil jamoalarni konserti hazil-mutoyiba, askiya transformatsiyasini ijtimoiylashuvini 2-jadval dallillaymiz. Misol:

2-jadval

Yoshlarning hazil-mutoyiba va askiyaga murojaatining qiyosiy holati

№	Jamoa yoki guruh nomi	Internet joylangan vakti	Murojaat soni	Ijtimoiy portal nomi
1	Askiya sayli [11]	2019	43.306	Youtube
2	Million [12]	2019	39.960.108	
3	Bravo [13]	2019	29.733.499	

5. XX asr kompyuter texnologiyasini yaratilishi kelgusi asrga xalokatli taraqqiyot omili bo‘ldi. Yoshlarda kitob, jurnal va gazetaga nisbatan kitobxonlik va mutolaa madaniyati susayib, bugungi ijtimoiy tarmoq kanallarida turli xil yengil-yelpi kundalik axborot kanal va guruhlarining ko‘pligi mutolaa transformatsiyasini isbotlaydi.

6. Geosiyosiy jihatdan bir millatni ma‘naviy qul qilishda ilk “Ommaviy madaniyat” importi inson organizmi uchun foydali milliy taomlardan inson sog‘lig‘iga psixo-biologik mutelikni hosil etadigan fast-fudlarning is‘temoli yoshlarning oziq – ovqat transformatsiyasi hisoblanadi.

7. Insoniyat taraqqiyotida yoshlarning ijtimoiy-hayotiy imidji, uni fe‘l-atvori, axloqi, ijtimoiy maqomini anglatuvchi omilga aylandi. Ammo globallashuv yoshlar hayotiga “ommaviy madaniyat”ning didsizlik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi illatlari, sport, oversayz, granj, eklektik, ich-keyim, kejual uslublari orqali kiyinish madaniyatida transformatsiya jarayoni sodir bo‘lmoqda.

8. Insoniyatni xayvonot olamidan farqlab turuvchi belgi so‘zlashuv-muomala madaniyati bo‘lib, so‘zlashuv madaniyati kishilarda ilk ta‘ssurot qoldirishning eng muhim omili hisoblanadi. Odamlarning o‘zaro muloqotida xushmuomalalik esa so‘z san‘ati hisoblanadi. Ammo texnika taraqqiyoti yoshlar muomalasida yangi so‘z va birikmalarning qo‘llash adabiy til qoidalariga axloqsiz, qo‘pol so‘zlar, ITdan kelib chiqqan yangi qisqartma so‘zlar madaniyati transformatsiyasiga fundament qo‘ydi.

9. Yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini susayib ketishi, ularni ongidagi fikr-mulohazalarini oq qog‘ozga tushirish madaniyatini mo‘rtlashuviga olib keldi. Yoshlarning sabrsizligi, shoshqoloqligi milliy-tabiiy yozma shakldan qog‘ozga xunuk va xato bilan yozish, ijtimoiy tarmoq va elektron xatlarda o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan: *Sh-W*, *Ch-4* harf va belgilarni almashtirish holatida yozish madaniyati transformatsiyasini kuzatilmoqda.

10. Emo (ing. emo - hissiy-emotsional) submadaniyat bo‘lib, tushkun kayfiyatdagi musiqiy janr orqali g‘arb jamiyatida shakllangan [7]. Bu submadaniyat vakillari jamiyat manfaatlariga zid milliy anana va odatlar, umuminsoniy qadriyat, axloqiy madaniyat normalarni mensimaslik, shaxsiy manfaatlarga berilib, sub‘ektiv ehtirolarni namoyish qilishga intilishdir. Mazkur harakatning yurtimizga kirib kelishi inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashdagi erishilgan yutuqlar tufayli tadbirkorlikdagi yangi qatlamning shakllanishi, ayniqsa sanatkorlarning yosh estrada yulduzlarining milliy ma‘naviyatga salbiy ta‘sir etuvchi ommaviy chiqishlari, bahs-munozaralari, ko‘p holatlarda sanat asarlarini yengil-yelpi, past saviyada ommaga havola etishi nafaqat sanatni, balki millatni milliy ideal va nafosatiga tahdid soladi. Shu ma‘noda yoshlar ijtimoiy ruhiyatida tolerantlik, qanoatlilik, sabrlilik, toqatlilik, chidamlilik, bag‘rikenglilik, yumshoqlilik, ishonchlilik, sahiylik, irodalilik, muruvvatlilik, xursandlilik, intizomlilik, aybdorlilik, kechirimlilik, uyatlilik, tavba qilish, rashqlilik, xushyoqishlilik, minnatdorlilik kabi ijobiy ruhiy-hislatlardan jizzalik, qaxrlilik, g‘azablilik, nafrat, qayg‘u, g‘am, qo‘rquv, isyonkorlik, depressiya, xasadlilik, qanoatsizlik,

befarqlik, loqaydlik, umidsizlik, bezovtalik, qo‘pollik, ajablanish kabi salbiy ijtimoiy-ruhiy holatlarga transformatsiyasi tabiiylashayotgani xususida ma’lumotlar bazasi hosil bo‘lmoqda [4, B. 285].

11. Xar bir millat o‘z o‘zligini saqlab qolish uchun urf-odat va an’alarini davomiy va merosiy shaklda milliy bayramlar, xirmon sayllar va turli xil tadbirlarda erkagu-ayolni fe’l-atvorida ijobiy sifatlarni rivojlantiruvchi milliy an’anaviy o‘yinlarni zamonaviy yoshlarimiz hayotida kompyuter video o‘yinlarga transformatsiyasini ko‘rishimiz mumkin.

12. Sport davlatni va xalqni dunyoga tez mashhur qiluvchi soha bo‘lib, mamlakatimizda sportni rivojlantirish va yoshlar hayotida sportga jalb uchun davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy muammo sifatida sport bilan shug‘ullanadiganlardan sportni tomosha qiladiganlarga auditoriyasini oshayotgani sportni transformatsiyasini isbotlab beradi.

13. Yoshlarda axborotga nisbatan bo‘lgan munosabatining shiddatkorligi va istemolchilar jamiyatida yoshlar tomonidan har qanday axborotni video-rolik shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat sha’ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta’siri axborot madaniyatida transformatsiya jarayonini ko‘rish mumkin.

14. Axborot texnologiyalarning dunyo miqyosidagi moliyalashuvi kapital jamiyati yoshlarining bugungi kundagi ehtiyojini qulay va oson yo‘llar orqali internetda katta miqdordagi mablag‘ topishga ruhlantirdi. Natijada, o‘qituvchi, shifokor, quruvchi, oshpaz, ichki ishlar xodimi va arxitektor kabi kasblar o‘rniga internet axborot maydonida yoshlarning yangi kasbi: Blogger, Vlogger, Viner, TikToker, Follower, Hater, Clicker, Crush, Cheater, Troll kabi onlayn faoliyat olib boruvchi yangi avlodi paydo bo‘lmoqda.

TAKLIF

Sotsiologik tadqiqotdan kelib chiqqan holda yoshlarning milliy ma’naviyat va qadriyatlardan uzoqlashuvi, begonlashishini oldin olish maqsadidagi ijtimoiy - amaliy tavsiya va takliflar:

- yoshlarda (onlayn) kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishda Internet tizimidan yangi sayt, bloglarni ishlab chiqish;
- yoshlarda sportni tomosha qilishdan ko‘ra sport bilan shug‘llanish madaniyatini rivojlantirish zarur;
- yoshlar mobil qurilmasida milliy, ta’lim va tarbiyaviy dasturlarni shakllantirish va rivojlantirish kerak;
- mutolaa madaniyatni rivojlantirish uchun umumiy o‘rta maktablarda adabiyot, tarbiya, tarix kabi fan dasturilariga eshitishga mo‘ljallangan audio dars programmasini shakllantirish zarur;
- o‘quvchi-talabalarni ta’lim muassasasidagi dars jadvali va o‘quvchi-talabalar ijtimoiy-ta’limiy maqomini bildirib turuvchi mobil qurilmasiga dastur yaratish kerak. Dastur orqali dars jadvalidan o‘quvchi-talaba va ota-ona xabardorligi, ijtimoiy-ta’limiy maqomi bo‘yicha dasturida ota-ona o‘z farzandini ta’lim muassasasida qanday ta’lim olayotgani xaqida onlayn xabar olib turadi;
- umumiy o‘rta maktablarda milliy etnografik an’ana, qadriyat va o‘yinlarni amaliy darslashtirish kerak;
- yoshlarni ijtimoiy tarmog‘dagi faoliyatini “Ommaviy madaniyat”ga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, vandalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish lozim;
- o‘quvchi-talabalar uchun internet: ijtimoiy tarmog‘da fan-manbaa, audio-teatr, audio-kitob kanallarini tashkili bilan ijtimoiy tarmog‘lardagi yoshlar faoliyatini unumli qilish lozim;
- ixtisoslashtirilgan maktab va xususiy universitetlarning tashkil etish orqali ziyoli qatlamini demografiyasini o‘shishiga olib keladi;
- yoshlarda onlayn-tadbirkorlikni shakllantirish kerak;
- bola-ona-vatanparvalik dasturini rivojlantirish lozim;
- oilada bola tarbiyasini “odatlantirish” va mehnat terepiyasi orqali barkamol avlod muhitini shakllantirish zarur.

XULOSA

Har qanday halq va millat o‘zining ko‘p asrlik milliy odat va ananalari bilan o‘zligini saqlab qolishi, taraqqiyotga milliy ma’naviyat bilan erishishi ijtimoiy qonuniyatdir. Shu ma’noda yoshlar

tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar osnosida sogʻlom his-tuygʻu, maqsad-moʻljallar aniq estetik tarbiyasini tashkili oʻta muhim milliy vazifaga aylanishining guvohi boʻldik. Millat yoshlarining kelajagini belgilab beruvchi maʼnaviy madaniyat va maʼrifat “Ommaviy madaniyat”, “Ommaviy qadriyat”, “Ommaviy tarbiya” kabi tahdidlardan himoyalash immunitetiga qaratilishi darkor. Milliy manfaat va maqsad, ezgu niyatlarni amalga oshirishga qodir boʻlgan yangi avlodni tarbiyalash masalasi Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy gʻoya, aslida milliy madaniyatni rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi milliy ruhni uygʻotish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirish ijtimoiy taraqqiyotning yuksak darajasining shartidir.

Globalashuv sharoitida axborot texnologiyalarining ijtimoiy madaniyat, yani yoshlarning mediamadaniyat sifatida shakllanishi taʼlim va tarbiya sohasida ahloqiy tarbiyaga eʼtiborni talab etadi. Yoshlar oʻzaro bevosita munosabatida nafosat va farosat qanchalik muhim boʻlsa, aloqalarning onlayn odob, onlayn ahloq, onlayn fazilat shaklida yoshlarning maʼnaviyatida madia tarbiyasini talab etmoqda. Bu masala onlayn qaramlik, onlayn qullikni (sindromi) oldini olish uchun onlayn feʼl-atvorda milliy anʼana, onlayn til kabi savodxonlik maʼrifatini shakllantirishga chaqiradi.

Har qanday jamiyatda taʼlim va tarbiya jarayoni uygʻun boʻlishi bilan birga muayyan tizim va funkcionallik tartibida ishlashi maqsadga muvofiqdir. Bizning kuzatishlarimiz taʼlim tizimi faollashib borishi bilan birga OAV tarbiyada taʼlimning mantiqiy davomi boʻlaolmay, kommersionalashgan alohida bozor iqtisodiy siyosatida yengil-yelpi yosh sanat vakillarini “mashhurlashish kasalini” davolash ishi yoki “reklama biznesi”ga aylandi. Jamiyatimizda sogʻlom fikr, sogʻlom kuch ustuvorligida yoshlarni axborotning zararli taʼsirlaridan asrash, ularni har tomonlama xalqimizning munosib farzandi boʻlib, yurtimiz dovrugʻini yana dunyoga tanitishi uchun taʼlim sohasi vakillarining maʼnaviy-maʼrifiy ishlari hal qiluvchi hayot-momot omiliga aylanmoqda [8, B. 229].

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
2. Шаров А.В. Трансформация ценностей в меняющемся мире // Вызовы современности и ответственность философа. / Материалы «Круглого стола», посвященного всемирному Дню философии. Кыргызско-Российский Славянский университет. Под общ.ред. И.И. Ивановой Бишкек: 2003. С.85-88
3. Романова К.С. Трансформация ценностей как индикатор изменения общества и личности // Научный ежегодник Института философии и права. Уральского отделения Российской академии наук. 2008. Выпуск 8, С. 166.
4. Мирзахмедов Х.А., Эмоционаллашаётган ёшлар. // Социологияни ўқитиш ва социал тадқиқотларни ташкил этишнинг долзарб масалалари. Республика илмий – амалий конференцияси маколалари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 284-288.
5. Сундиев И. Россия-часть нового халифата? // Комсомольская правда. www.kp.ru – С.12-13
6. Кавер-версия. URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Кавер-версия>
7. Эмо (субкультура) URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Эмо_\(субкультура\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Эмо_(субкультура))
8. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2- жилд, -Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. - Б. 229.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т-ҳарфи. Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”, 2004. – Б. 634.
10. Муаллиф диссертация тадқиқот сўровномасидан берган таҳлили (Мирзахмедов Х.А. Ёшларнинг толерантлик маданиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг социологик таҳлили. соц.ф.ф.док. (PhD) Дис. Т.: 2022)
11. Аския сайли.– URL: <https://www.youtube.com/watch?v=W7qO7WbwIDg> (мурожаат санаси: 08. 09. 2022)
12. “MILLION” JAMOASI KONSERT DASTURI – 2019 // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=jo3aLcacRow> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).

13. “BRAVO” JAMOASI KONSERT DASTURI – 2019 // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=6Qy8IrumoiE> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).
14. Sherali Jo'rayev - Karvon (jonli ijro) // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=s5bMNQeTzgo> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).
15. Sanjay - Karvon // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=lb53rKt8meM> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000